
⚡⚡⚡DIQQAT!!!

Hurmatli tumanimiz fuqarolari!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2024-yil 24-yanvar kungi 03/23-9-1657-sonli xati bilan shahar va tumanlarda fuqarolarni byudjet jarayonlariga keng jalb etish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab qo'yilgan.

Ushbu belgilangan ko'rsatmalarga muvofiq, "Tashabbusli byudjet" jarayonining 2024-yil 1-mavsumi joriy yilning 1-fevralidan boshlanishi rejalashtirilmoqda.

Bunda, 1-fevraldan – 20-fevralga qadar loyiha kiritish bosqichi;

21-fevraldan – 11-martga qadar loyihalarni saralash bosqichi;

12-martdan – 1-aprelga qadar ovoz berish bosqichlari o'tkaziladi.

Shu munosabat bilan sizlardan o'zingiz yashayotgan mahalladagi muaommolarni ilgari surishingizni so'rab qolamiz.

☎Qo'shimcha ma'lumotlarni +998 90 317 25 62 telefon raqami orqali olishingiz mumkin.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-01-26 10:49:50